

KREDIT MAXSULOTI PASPORTI

Kredit maxsulotining turi va nomi	Biznesga birinchi qadam – “Econom”
Qarz oluvchiga qo‘yiladigan talablar	O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, 18 yoshga to‘lgan, shuningdek o‘zini-o‘zi band qilgan jismoniy shaxs.
Kredit valyutasi	O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so‘m.
Kredit miqdori	10 000 000 (o‘n million) so‘mgacha.
Kredit maqsadi	Tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun.
Kredit muddati	12 oy muddatga, 1 oygacha imtiyozli davr bilan.
Foiz stavkasi	Yillik 32%
	Kredit foizlariga Boshqaruv qarori bilan o‘zgartirish kiritilishi mumkin.
Taqdim etish shakli	Naqd pul ko‘rinishida yoki qarzorning ATB “Universal bank” da ochilgan plastik kartasiga o‘tkazish yo‘li bilan
Talab etiladigan hujjatlar	- Qarz oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k); - O‘zini-o‘zi band qilganligi to‘g‘risida guvohnomadan nusxa; - Kafilning shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k); - Mulkning qiymati haqidagi mustaqil baholash hisoboti;
Kredit ta‘minoti	* Kredit miqdorining 125% dan kam bo‘lmagan miqdorda, bank talablariga muvofiq keladigan uchinchi shaxs kafilligi yoki sug‘urta polisi; * Bankka aloqador bo‘lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo‘yicha 130% qiymatida garov qabul qilinadi.
Kredit qaytarish tartibi	Kredit va hisoblangan foizlarni to‘lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet to‘lov usulida amalga oshiriladi.
Qo‘shimcha shartlar	* Qarzorning loyihadagi ishtiroki 30% dan kam bo‘lmasligi; * Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish joyi mavjudligi; * Qarz oluvchining o‘rtacha oylik daromadi kredit bo‘yicha eng yuqori oylik to‘lov hamda mavjud kreditlar/qarzlarni bo‘yicha o‘rtacha oylik to‘lov miqdorini qoplash uchun yetarli bo‘lishi lozim. * Kafilning daromadi yuqoridagi talabga muvofiq alohida baholanadi.